

## **Mahalla iste'molchilar bilan ishlash boshqarmasi**

Mahalla iste'molchilar bilan ishlash boshqarmasi asosan respublika hududidagi aholi iste'molchilar (xususan yerli ko'p qavatli gazlashgan xonadonlar – keyingi o'rinlarda iste'molchilar) bilan ishlaydi. Xususan:

- iste'molchilarga "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari" talablari hamda "Tabiiy gazni yetkazib berish va uni qabul qilish to'g'risida"gi shartnoma shartlariga asosan tabiiy gazni yetkazib berilishi;

- iste'molchilarni tabiiy gazdan oqilona foydalanishi;

- iste'molchilar bilan o'z vaqtida shartnomalar rasmiylashtirilishi;

- iste'molchilar tomonidan gaz ta'minoti tashkilotiga kelib tushgan ariza, shikoyat va takliflarini Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq sifatli va o'z muddatida ko'rib chiqish va iste'molchilarga asoslantirilgan javoblar yo'llash;

- iste'molchilarga gazdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish;

- iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun debitor qarzdorliklar paydo bo'lishining oldini olish, ulardan oldindan to'lovlarni undirish;

- shartnoma shartlariga amal qilinishini nazorat qilish, shartnoma shartlari buzilganida, qarzdorlik paydo bo'lganida, tabiiy gazdan noqonuniy foydalanilganida yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakillarining qonuniy talablari bajarilmaganida ularni ogohlantirgan holda gaz tarmoqlaridan o'chirish;

- iste'molchilarga tabiiy gazni yetkazib berish jarayonlarida "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari" talablariga rioya etilishini nazorat qilish;